

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

2/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматовиҷ – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Сайдалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Файбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Сайдова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, "Tashkent International University of Education" халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тибиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехruz Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдулаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашурновна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайневна - педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибраҳимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баҳодировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна - психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;
Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;
Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Махкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” маъсулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Полвонов Козимбек	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ ЖАНУБИЙ ШАҲАРЛАРИ ТОПОНИМИГА ОИД	
МАЪЛУМОТЛАР	10-15
<i>Xadjamuratova Matlyuba</i>	
МАКТАВГАЧА ТА’ЛИМДА БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОИY ХИМОЯ QILISHGA INNOVATSION	
YONDOSHUVNING DOLZARBLIGI	16-21
Шовкатов Шокир Шовкат ўғли	
АБУЛ-ЮСР ПАЗДАВИЙ ИЛМИЙ МЕРОСИНИ ЎРГАНИШДАГИ ЁНДАШУВЛАР	22-31
<i>Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li</i>	
О'zbekiston RESPUBLIKASIDA SUD QONUNCHILIGIGA KIRITILGAN O'ZGARISHLAR VA	
ULARNING AHAMIYATI	32-36

Пардаев Асрор	
ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ АҲОЛИСИНИ ХАЛҚ ИСТЕМОЛИ ВА ОЗИҚ-ОВҚАТ	
МАҲСУЛОТЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ	37-42

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Умурзақова Мўътабархон Нодир қизи	
ЖАХОНДА ТИББИЙ СУФУРТА ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ	43-52

Рахманов Зафар	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ДЕПОЗИТ ОПЕРАЦИЯЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ	
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИНИ БАҲОЛАШ	53-62

Аминов Фазлитдин Баҳадирович	
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ СЕМЕЙНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В ЭКОНОМИКЕ	
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	63-70

Курбонова Шаҳриноз Авазхоновна	
ИҚТИСОДИЁТНИ ДИВЕРСИФИКАЦИЯЛАШ ЖАРАЁНЛАРИДА АСОСИЙ ВОСИТАЛАР	
ТАҲЛИЛИНИ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ	71-81

<i>Azimova Hulkar Egamberdiyevna</i>	
KREDIT PORTFELINI SAMARALI BOSHQARISHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI	82-87

Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
LOGISTIKA XIZMATLARINI KO'RSATISHDA BUYUMLAR INTERNETI (INTERNET OF	
THINGS)DAN FOYDALANISH	88-93

Сайдов Сарвар Хайруллоевич	
ДАВЛАТ ХИЗМАТЧИЛАРИДА БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШ	
БОРАСИДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ	94-104

Сержанов Аймурат Медетбаевич	
ХАЛҚАРО АМАЛИЁТ ВА ЎЗБЕКИСТОНДА РАҶАМЛИ БАНКЛАР ХИЗМАТЛАРИНИ ЯРАТИШ	
ЗАРУРИЯТИ	105111

Туробов Шерзод Алишерович, Ибодуллаев Зафар Ибодуллаевич	
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ХОРИЖ	
ТАЖРИБАСИ	112-119

<i>Daniyarova Feruza Baxriddinovna, Chinorova Shahodat Mansur qizi</i>	
O'zbekiston IQTISODIYOTIGA XORJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH	
YO'LЛАRI	120-126

Temirova Feruza Sagdullayevna

XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA BRENDGA SODIQLIK 127-132

Sharipova Shaxzoda Xasanovna

YANGI O'ZBEKISTONDA TURIZM MADANIYATINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI 133-138

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Алимова Шахноза Хамидовна*

НОГИРОНЛИГИ БОР ЁШЛАР - АЛОҲИДА ХУСУСИЯТГА ЭГА ИЖТИМОЙ-ДЕМОГРАФИК ГУРУХ СИФАТИДА 139-147

Asrakulova Adiba Nabieva

“ЁШЛАР ВА БИЗНЕСНИ ҚЎЛЛАБ-ҚУВВАТЛАШ ЙИЛИ” НИНГ ҚАБУЛ ҚИЛИНИШИ ТАДБИРКОРЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ АҲАМИЯТИ 148-154

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Teshabayeva Dilfuza Muminovna*

LEXICAL PROBLEMS OF TRANSLATING THE NAMES OF NEW PHENOMENA IN MASS MEDIA 155-160

Rustamov Ilxom Tursunovich, Inog'omjonova Robiya Rustamjon qizi

INTERFERENSIYA HODISASINING TILDA AKS ETISHI XUSUSIDA OLIMLARNING TADQIQOTLARI VA QARASHLARI 161-165

Abdikhamidova Sevinch Obidjon kizi

PROBLEMS FACED IN TRANSLATING PROPER NOUNS 166-170

Djurakulova Elmira Suyunova

SHOYIM BO'TAYEV ROMANLARIDA BADIY XRONOTOP VA MIFOLOGIK TALQIN 171-177

Dalieva Madina Khabibullaevna

THE ROLE OF BLENDING THEORY IN POLYSEMY AND METAPHOR 178-183

Жўраева Ирода Ахмедовна

ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК АНТРОПОНИМИК ЛУФАТЛАР ТИПОЛОГИЯСИ 184-189

Iminova Shahnoza-Begim Bahodirovna

INGLIZ TILIDA INSONNING IJOBIY AQLIY XUSUSIYATLARINING IFODALOVCHI BIRLIKLARNING KONSEPTUAL, LINGVO-MADANIY XUSUSIYATLARI 190-193

Irgasheva Shoxida Sadriiddinovna

INTERNET DISKURSIDAGI IQTISODIY NEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH XUSUSIYATLARI 194-200

Tursunova Zarina Farxodovna

LINGVISTIKADA EMOTLARNI O'RGANISHGA ZAMONAVIY YUNDASHULAR (INGLIZ TILI ASOSIDA) 201-205

Satibaldiyev Erkinjon Kamilovich

PARADIGMATIC SOUND INTERFERENCE IN THE ENGLISH SPEECH OF TURKOPHONES 206-212

Radjabova Hafiza Shukrulloyevna

INGLIZ VA O'ZBEK TERMINOLOGIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI 213-220

Avezova Dilovar Salimovna

TAXALLUSLARNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATI 221-225

<i>Alikberova Kamila Adhamovna</i>	
A CRITICAL ANALYSIS OF LANGUAGE USE AND LANGUAGE ACQUISITION	226-232
<i>Rakhmatova Bahara Ibodulla qizi</i>	
THE ROLE OF LEGAL DISCOURSE IN MODERN LINGUISTICS	233-238
<i>Valieva Nargizakhon Zamir kizi</i>	
COMPARATIVE ANALYSIS OF “KITE RUNNER” AND “A THOUSAND SPLENDID SUNS” BY KHALED HOSSEINI: THEMES, CHARACTERS, AND SOCIOPOLITICAL CONTEXT	239-244
<i>Mamatqulova Zilola Rejabaliyevna</i>	
RISHTON KULOLCHILIK MAKTABI KASB-HUNAR LEKSIKASINING STUKTURAL TASNIFI	245-251
<i>Alimova Kamola Tursunovna</i>	
CHALLENGES IN PREPARATION OF GUIDE TRANSLATORS	252-258
<i>Сейтимбетова Айкумар Пулатбаевна</i>	
ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ, РУССКОМ И КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКАХ.....	259-264
<i>Бегжанова Айсилуу Махмудовна</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА КОМПЬЮТЕР ЛИНГВИСТИКАСИ ТЕРМИНЛАР ТИЗИМИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	265-270
<i>Kubanova Ilmira Sharifovna</i>	
EXPLORING ABBREVIATED RAILWAY TERMINOLOGY IN ENGLISH: A COMPREHENSIVE ANALYSIS	271-275
<i>Azamjonova Sarvinoz</i>	
USE OF TOPONYMS IN MODERN FRENCH MEDIA	276-282

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Muxiddinova Dildora Muxiddinovna</i>	
O'ZBEKİSTONNING BOJXONA FAOLIYATIGA KİOTO KONVENSIYASINI JORİY ETİŞHNİNG HUQUQIY JİHATLARI VA JSTGA A'ZOLIKNING TA'SIRI	283-292
<i>Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li</i>	
SOLIQ NAZORATI HUQUQIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH DAVLAT MOLİYAVİY NAZORATI INSTITUTİNİNG MUHİM OMİLİ	293-298
<i>Mustanov Ilxom Abdıvalijonovich</i>	
BANK QONUNCHILIGINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIKNING NAZARIY-HUQUQIY JİHATLARI	299-304
<i>G'oyibov Jo'rabek Choriyevich</i>	
YOSHLAR MIGRATSİYASI: MUAMMO VA YUTUQLAR TAHLILI	305-309

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Kuziyev Otobek Chuliyevich</i>	
TALABALARDA AXBOROT MODELLASHTIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING MUHİM UCH BOSQICHI	310-314
<i>Fattaxova Diloram</i>	
TIL O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN KOMPYUTER METODLARI	315-321
<i>Moydinova Elmira</i>	
APPLICATION OF FLIPPED LEARNING METHODS IN THE UNIVERSITY	

CLASSROOM	322-326
<i>Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi</i>	
ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI	327-333
<i>Doniyorova Gulrux Shoniyozovna</i>	
AVTOMOBILSOZLIK YO'NALISHI TALABALARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA DASTURIY VOSITALARNING AHAMIYATI	334-338
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i>	
RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIMINING ASOSIY NAZARIYALARIDA TA'LIM OLUVCHINING ANALITIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	339-344
<i>Xo'jamberdiyeva Dilfuzা Ikramovna</i>	
DARSLIK BILAN ISHLASH O'QUVCHILARNING AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA	345-351
<i>Mamaraimov Bekzod Qodirovich</i>	
O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING QIDIRUV FAOLIYATIGA TAYYORLIGI	352-356
<i>Xudayberdiev Nurislam Nuralievich</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK MEXANIZMI	357-363
<i>Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich</i>	
TALABALARINING O'QUV FAOLIYATI VA ILMIY IZLANISHLARIDA SUN'IY INTELLEKT: IMKONIYAT VA CHEGARALAR	364-369
<i>Teshaboyeva Shahodat</i>	
ZAMONAVIY SHAROITDA SHAXSNING KASBIY HUQUQIY MADANIYATI	370-375
<i>To'rayeva Dilnoza Ismoilovna</i>	
RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USLUBIY TAYYORGARLIKNING BIR QISMI SIFATIDA	376-380
<i>Beknayeva Shaxnoza Vladimirovna</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION JARAYONLAR	381-388
<i>Dusyarov Salimjon Xudaymuratovich</i>	
HARAKATLI O'YINLAR ASOSIDA MAKTAB O'QUVCHILARIDA JISMONIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH	389-393

Xodiyeva Gulhayo Hasan qizi

Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika
fanlari ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktaranti

ZAMONAVIY BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 4K MODELI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA INTEGRATIV YONDASHUVNING MOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limga integrativ yondashuvning mohiyati, boshlang'ich ta'lim tizimida 4K modeli kompetensiyalari va uning tarkibiy qismlari: kolloborativ, kommunikativ, kritik va kreativ kompetensiyalari haqida, shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati, dars jarayonida 4K kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lif, 4K kompetensiyalari, kritik, kolloborativlik, kommunikativlik, kreativlik, integrativ yondashuv.

Xodiyeva Gulhayo Xasan qizi

Doctoral student at the Uzbek Scientific Research Institute
of Pedagogical Sciences named after T.N.Kari Niyazi

THE ESSENCE OF THE INTEGRATIVE APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF 4K MODEL COMPETENCIES IN MODERN PRIMARY EDUCATION

Abstract: This article examines the essence of the integrative approach to primary education, the competencies of the 4K model in the primary education system and its components: colloquial, communicative, critical, and creative competencies, as well as the importance of developing these competencies in younger schoolchildren, the methodology of developing 4K competencies in the lesson process.

Keywords: primary education, 4K competencies, criticality, collaboration, communication, creativity, integrative approach.

Ходиева Гулҳаё Ҳасан қизи

докторант Узбекском научно исследовательском институте
педагогических наук имени Т.Н.Кары Ниязи

СУЩНОСТЬ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА К РАЗВИТИЮ КОМПЕТЕНЦИЙ МОДЕЛИ 4К В СОВРЕМЕННОМ НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность интегративного подхода к начальному образованию, компетенции модели 4К в системе начального образования и ее составляющие: коллaborативные, коммуникативные, критические и креативные компетенции, а также значение развития этих компетенций у младших школьников, методика развития компетенций 4К в процессе урока.

Ключевые слова: начальное образование, компетенции 4К, критичность, коллаборационизм, коммуникативность, креативность, интегративный подход.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI2Y2024N48>

Kirish. XXI asrda jamiyat, fan va raqamli texnologiyalar va axborot oqimining kundalik jadallahushi, ta'lif oluvchilardan chuqur integratsiyalashgan bilim va hayotiy ko'nikmalarini talab qilmoqda.

Integratsiyalashgan bilim va intellektual salohiyatga ega yangi avlod kadrlarini tarbiyalash fanlar integratsiyasini takomillashtirish mexanizmini yaratish va uni amalga oshirishni talab etadi. 2020 yil 23-sentabrdagi yangi tahrirdagi "Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning [1;2-3] 5-moddasida ta'lif tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lif dasturlarini amalga oshirish, shuningdek, ta'lif faoliyati sohasida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash belgilab qo'yilgan.

XXI-asrning eng muhim hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida urg'u berilmoqda. Zamonaviy boshlang'ich ta'lif tizimida o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, hayotiy vaziyatlardagi muammolarga nostandard yechimlar o'ylab topish, o'quvchi yoshlarni boshlang'ich sinfdanoq zamonaviy kasblarga yo'naltirish uchun o'rganish jarayoning 4ta muhim kompetensiyalari, 4K modeli kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida shakllantirish bugungi zamonaviy ta'lif tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada to'rtta eng muhim ko'nikmalar: kritik (tanqidiy) fikrlash; kreativ fikrlash (ijodkorlik); kollobarativlik (hamkorlik); kommunikatsiya (aloqa) yani 4K modeli kompetensiyalarini muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir. Ular ko'pincha o'quvchilarining o'z qobiliyatlaridan kelib chiqib kasb tanlashlari va kelajakda o'z strategiyalarini yaratishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Tanqidiy (kritik) fikrlash kompetensiyasi boshqa fazilatlar qatorida muammolarni hal qilish amaliyotidir. Muammolar bilan ishlash, boshqotirmalarni yechish va shunga o'xshash faoliyat bilan bir qatorda, tanqidiy fikrlash skeptitsizm elementini ham o'z ichiga oladi. Bu ko'nikma XXI asrda juda muhim, chunki bugungi kunda aniq ma'lumotni tekshirish har qachongidan ham qiyinroq (asosan internet tufayli). Tanqidiy fikrlash o'quvchilarga, ayniqsa, haqiqiy ma'lumotni fake (soxta) ma'lumotlardan ajratishga, turlin xil tasdiqlarda haqiqatni aniqlashga yordam beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlashni rivojlantirish orqali ularda yuksak darajadagi fahm-farosat kabi xislatlarni ham shakllantirish mumkin. Tanqidiy fikrlash yordamida o'quvchilar shunchaki bir qator faktlar yoki raqamlarni o'rganmaydilar. Buning o'rniga, ular o'zlarini uchun fakt va raqamlarni qanday topishni o'rganadilar. Savollar berish orqali o'quvchilar atrofdagi dunyo bilan shug'ullanadilar. Shunda ular o'z bilimlarini tengdoshlariga tarqatishda, boshqalarga ham tanqidiy fikrlashga yordam berishlari mumkin. O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini boshqalar bilan baham ko'rishlari tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning eng muhim jihatidir.

Kreativ fikrlash - bu o'quvchilar muammolarni hal qilish, tizimlarni yaratish yoki ilgari sinab ko'rmagan narsalarni sinab ko'rish orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Bu har bir o'quvchi rassom yoki yozuvchi bo'ladi, degani emas. Bu har bir o'rganuvchi bir nechta nuqtai nazarni ilgari surishini anglatadi. O'quvchilar o'z ijodlarini o'rganish bilan birga, uni sog'lom va samarali tarzda ifoda etishni ham o'rganadilar.

Kollobarativlik (hamkorlik) umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qilish amaliyotidir. Hamkorlik juda muhim, chunki o'quvchilar butun umri davomida boshqa odamlar bilan ishlashadi. Hamkorlik va jamoada ishlashni mashq qilish o'quvchilarga muammoni qanday hal qilishni, yechimlarni taklif qilishni va eng yaxshi harakat yo'nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi. Bu kompetensiyani rivojlantirish orqali o'quvchilar

atrofdagi shaxslar bilan qanday muloqatga kirishish, fikrlarini boshqalarga qanday usullarda yetkazish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Kommunikativlik (samarali muloqot) fikrlarni tez va aniq yetkazish amaliyotidir. Samarali muloqot san'atini puxta egallasa, o'quvchilar o'z g'oyalarini tartibga solib, atrofdagilarda ijobjiy taassurot qoldirishlari mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishi yuqori samara beradi. Demak: tanqidiy fikrlash o'quvchilarni turli muammoli masalalar, ma'lumotlar yuzasidan haqiqatni izlashga o'rgatsa, kreativlik – o'quvchilarni o'ziga xos tarzda fikrlashga o'rgatadi. Kolloborativlik – o'quvchilarga guruhlarda ishlaganda o'z kuchidan ko'ra kattaroq va yaxshiroq narsani yaratishi mumkinligini va muloqot – o'quvchilarga fikrlarni qanday qilib samarali yetkazishni o'rgatadi. Integrativ yondashuv esa, ushbu to'rtta kompetensiya birgalikda shakkalntirish uchun zarur imkoniyatni beradi..

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

"Integrasiya" atamasi ilk bor XVIII-asr faylasuf olimi G.Spenser tomonidan izohlangan va fanga kiritilgan bo'lib, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sohalarida, jumladan, ta'lif sohasida ham integratsiyaning rivojlanish funksiyalarini amalga oshirish orqali muhim ilmiy muammolarni hal qilish mumkinligi amaliyotda isbotlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual fikrlay olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirish, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga o'rgatish, boshqalar fikrlarini tushunish, shaxsiy fikrlarini og'zaki va yozma bayon eta olish hislatlarini shakllantirishda integrativ yondashuv muhim rol o'ynaydi.

Integrasiyaning falsafiy, psixologik-pedagogik, metodik asoslari nazariy jihatdan G.Spenser, S.L.Rubinshteyn, I.D.Zderev, N.V.Maksimova, N.S.Svetlovskaya, Y.M.Kolyagin, L.V.Tarasovlar, shuningdek, respublikamiz pedagog olimlari R.G'.Safarova, U.K.Musayev, B.Mirzaxmedov, O.Abduquddusov, U.Sh.Begimqulov, M.X.Lutfullayev, E.A.Turdiqulov, Sh.T.Xalilova, M.T.Jumaniyozovalat tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida "integratsiya" atamasi lotincha "integration" – tiklash, to'ldirish, butun-butun ma'nolarini bildiradi va unga quyidagicha ta'rif berilgan. "Tizim yoki organizmning ayrim qismlari va funksiyalarining o'zaro bog'liqlik jarayonini shunday holatga olib keladigan ifodalovchi tushuncha

A.I.Vazboyev integratsiya – "ayrim komponentlarni bir butunga birlashtirish, yangi xususiyatni shakllantirish jarayoni" degan xulosaga keladi.

R.A.Mavlonova shunday yozadi: "Integratsiya "butun" degan ma'noni anglatadi, shuning uchun keling, bu fikrlash o'sish jarayoni nima ekanligini va integratsiya qanday hodisa ekanligini atama va uslubiy nuqtai nazardan ko'rib chiqamiz. "Integrasiya" so'zi lotinch so'zdan olingan bo'lib, to'ldirish degan ma'noni anglatadi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, integratsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Integratsiya – tizim elementlarining ayrim qismlari va funksiyalarini bir butun, yaxlit holatga keltirish, o'zaro bog'liqlik holatiga ko'ra yangi xususiyatni shakllantirish. Bu ta'rif kengroq ma'noga ega, chunki tizimda ishtirot etmaydigan elementlar ba'zi qismlar va funksiyalarini rivojlantirish, yangi xususiyatni shakllantirish uchun bir butun holatga birlashishi tushuniladi. Integratsion o'qitish esa mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan bilimlarni birlashtirish va to'ldirish yo'li bilan o'qitishdir. Integratsiyalashgan ta'lif fan asoslaridan berilgan bilimlar mazmuniga yangicha yondashuvni nazarda tutadi [14; 27-32].

Boshlang'ich sinf darslarida 4K modeli kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish o'rghanishning eng muhim sharti sifatida e'tirof etilmoqda. Dunyo olimlaridan Suresh Chiruguru "The Essential Skills of 21st Century Classroom (4Cs)"; Makershala "Studying to learning, 3rs to 4cs"; A.Pavelch "The 4 Cs: From Buzzword to Reality"; Vassiliki Papadopoulou, Angeliki Lithoxoidou "Critical incidents analysis in teacher education: Assessing student-teachers' critical thinking"; U. Akpur "Critical, reflective, creative thinking and their reflections on academic achievement"; M. Khalid, S. Saad, S.R. Abdul Hamid, M. Ridhuan Abdullah, H. Ibrahim, M. Shahrill "Enhancing creativity and problem solving skills through creative problem solving in teaching mathematics, how teaching to foster mathematical creativity may impact student self-efficacy for proving"; Kartono Gunawan, Wardono, I. Kharisudin "Analysis of mathematical creative thinking skill: in terms of self confidence"; R. Utami, S.B. Waluya, Walid "Creative thinking ability of prospective mathematics teacher in solving statistical problems based on self concept mathematics"; A.Bicer "Multiple representations and mathematical creativity" kabi ilmiy tadqiqotlarida o'rganganlar.

Integrativ yondashuvni boshlangich ta'limga oid xususiyatlarinin R.Safarova, A.Musurmonov, P.Musayev, A.Ch.Choriyev, A.A.Salomov, B.Abdullayeva kabi o'zbek olimlari tadqiq etgan. O'r ganilgan tadqiqot ishlarida fanlararo aloqadorlikning turli yo'nalishlari va tamoyillari, ularning o'quv jarayonida muayyan fanlarni o'zlashtirishda qo'llanilishi, o'quv fanlariaro aloqadorlik asosida tanlangan ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar ilmiy-amaliy jihatdan hal etilgan.

Jumladan, V.N. Fedorova o'z tadqiqotlarida fanlararo aloqadorlikning o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatib, o'quv fanlariaro aloqadorlik tabiiy fanlar bilan atrof-muhit hodisalarini o'zaro aloqadorlikda va izchillikda ifodalashning didaktik sharti sifatida namoyon bo'lishi asoslarini tarkib toptirishning pedagogik, psixologik, metodik jihatlari tadqiq qilingan.

O'quvchilarda matematik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish asosida uning boshqa fanlar bilan aloqadorligini I.Ya.Lerner, M.N.Skatkinlar matematik bilimlar asosida o'quv jarayonini faollashtirish asosida, M.K.Ashirova matematikaning boshqa fanlar bilan fanlararo aloqadorligi xususiyatlarini; A.M.Matyushkin, V.T.Kudryavtseva, L.S.Vigotskiy, B.G.Ananev, G.F.Fedores matematik ko'nikma va malakalarni fanlararo aloqadorlikda shakllantirishning psixologik shart-sharoitlari, o'quvchilarda bilishni takomillashtirishning qonuniyatlarini o'z tadqiqotlarida ochib bergenlar.

Shu bilan birga integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarda matematik tessavurlarni shakllantirish metodikasini aniqlash va o'r ganish zarurati mavjud. Boshlang'ich sinflarda har bir o'qituvchining dars berishi, alohida olingan integratsiyaning bir usuli deb qarasak, fanlararo aloqadorlikni ilmiy jihatdan asoslash maqsadida uning metodologik-didaktik infratuzilmasini vujudga keltirish, ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quv fanlarining o'zaro aloqadorligini ta'minlash asosiy masalasidir. O'quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik aspektlari va omillarini tadqiq etish, interfaol ta'lim texnologiyalari va metodlari vositasida kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, ijodiy yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'quvchilarda

kreativlik potensialining rivojlanganlik darajasini aniqlash dolzARB ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega masalalardan sanaladi.

Muhokama va natijalar. Integrativ yondashuv o'quvchilarning tafakkur qobiliyatini va rivojlanishini o'quvchilarning ijtimoiy hamjamiyatda ishlash qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Integrativ yondashuv tizimi – bu har doim rivojlanayotgan metodika bo'lib, dunyoning bir necha mamlakatida amalga oshirilmoqda. Integral yondashuv asosida o'quvchilarning tayanch va fan bo'yicha o'ziga xos kompetensiyalarini shakllantirishning turli metod va usullarni o'z ichiga oladi.

Quyidagi ushbu maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan metodika muhokama etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Tanqidiy fikrlash uchun: onlayn tadqiqotlar va sinf ichidagi bahslar o'quvchilar o'rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning ajoyib usulidir. Chunki dalillar va ularni baholash kuchli tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, o'quvchilarni izlanishlar olib borishlari, mustaqil fikrlashlari, noto'g'rilibini aniq tan olishlari va o'z dalillarini sinchkovlik bilan tuzishga o'rgatuvchi metodlar o'quvchilarga o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini baholashlari va keyin berilgan mavzu bo'yicha sinf muhokamasini olib borishlariga imkoniyat yaratadi. Bunda darslarda o'quvchilarga guruhlarda muammoli vaziyatlar va topshiriqlar ustida ishlashga ruxsat berilishi muhim.

Kommunikativ kompetensiya uchun: o'qituvchilar sog'lom muhokamani targ'ib qilish vositasi sifatida kichik guruhlar yoki butun sinf uchun turli forumlardan foydalanishlari mumkin. Bu forumlar o'quvchilarni muloqot qilishga undashi mumkin, chunki har bir o'quvchi sinfda gapirishga qulay emas. Ushbu platformalar tortinchoq o'quvchilarga butun sinf oldida gapirishga majburlamasdan, o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatini beradi. Guruhlarda muloqotni boshlash uchun o'quvchilarni sinfda faqat konstruktiv munozaralarda qatnashishga undash kerak. O'quvchilarning fikrlari aniq faktlar bilan tasdiqlanganligiga ishonch hosil qiling va yozish va muloqot qobiliyatlarini yaxshilash uchun ularga sodda ingliz tilini o'rgating.

Kolloborativ kompetensiya uchun muammoli vaziyatlarni o'zaro baholash o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirishning ajoyib usuli hisoblanadi. O'quvchilar o'z topshiriqlarini onlayn sinf doskasiga yuklashlari va keyin ular bo'yicha fikr-mulohazalarini olishlari mumkin. Hamkorlikda ular o'z sinfdoshlariga ishlari haqida fikr bildirganlarida boshlanadi. O'qituvchilar o'quvchilarga qanday qilib konstruktiv fikr bildirish bo'yicha ko'rsatmalar berishi mumkin, bu esa ular sinfda o'rganganlari bilan yanada mustahkamlanadi.

Kreativ fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagilarga e'tibor berishi kerak: o'quvchilarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob berish; ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qilish; o'quvchilarga o'z g'oyalari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajratish; agarda ijodiy jarayon bilan bog'liq bo'lsa, u holda o'quvchini xonadagi tartibsizlik uchun koymaslik; vaqt-vaqt bilan o'quvchilarga ularni yaxshi ko'rishingizni va ularni qanday bo'lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon etish; o'quvchilarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyurish; ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashish; kamchiliklarini ko'rsatgan holda o'quvchini boshqalar bilan solishtirmaslik; o'quvchini kamsitish va o'zini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yo'l qo'ymaslik; uni mustaqil fikrlashga o'rgatish; ularni turli voqealarni o'ylab topishga, fantaziya qilishga majburlash, bu jarayonda unga yordamlashish; har kuni o'quvchi bilan

yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt topish; xatolari uchun o'quvchini masxara qilmaslik; o'quvchini har bir yutug'i uchun maqtash; uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o'ylab topish; o'quvchiga nisbatan o'z munosabatingizni baholashda odil bo'lish; o'quvchiga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini berish; ularni o'z qobiliyatlarini ijobjiy qabul qilishga odatlantirib borish; o'quvchini kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatish; kundalik daftar yuriting va unga O'quvchida kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib borish [9; 13-14].

Ko'p hollarda o'quvchilar 4K kompetensiyalarini egallashda duch keladigan qiyinchiliklarni oldini olishda bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish; masalaning qo'yilishini bolaning yoshiga moslashtirish; masalani hal qilish rejasini tuzishni o'rgatish; masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va boshqalarni qo'llash; masalani hal qilish usullarini tanlay olish; qabul qilingan qarorning to'g'rilibini asoslash va qayta tekshirish; masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish; masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va yechimni umumlashtirishni o'rgatish muhim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K modeli kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishda rag'batlantirish hamkorlik va muloqot orqali empatiyani o'rganishga, turli nuqtai nazarlarni baholashga asoslangan munosabatlar orqali kommunikatsion aloqalarni o'rnatishga, yordam beradi.

Xulosa. Boshlang'ich ta'lilda 4K modeli kompetensiyasidan integrativ yondashuv asosida shakllantirishda raqamli doskalar, raqamli texnologiyalardan foydalanish, moqda dars jarayonida jozibador muhitni yaratish, dars jarayonini qiziqarli, interaktiv bo'lishi uchun sinfda kompyuter, planshet yoki smartfon kabi qurilmalardan foydalanish muhim. Har bir o'quvchi uning tushunchasiga mos keladigan o'quv rejasini ishlab chiqish, dars jarayoninini zamonaviy pedagogik o'yinlar orqali turli xil usullarda tashkillashtirish mumkin. Bu o'quvchilarning turli vaziyatlarda bir-biriga yordam berishga, o'quvchilalar kichik guruuhlarida ishlaganlarida esa, ilg'or o'quvchilar o'z tengdoshlariga yordam berish orqali ular o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga olib keladi.

Boshlang'ich sinf dasrlarida 4K kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish orqali biz o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga, muammolarga nostandard yechimlar topishga, kichik-kichik maqsadlar qo'yishga, jamiyat bilan erkin munosabatga kirishishlariga, jamoada o'zini qulay his qilishlariga, o'z fikrlarini asoslashlariga, ularda ilk notiqlik san'atini shakllantirishga, zamonaviy kasblarga yo'naltirishga, ilk moliyaviy va pul bilan bog'liq bo'lgan tasavvur va munosabatlarni shakllantirishga, berilgan topshiriqlar, foydalanilgan pedagogik o'yinlar vositasida qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishga, ushbu qobiliyatlarini zamonaviy va daromadli kasblarga yo'naltirishga, boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilarni o'z ustida ishslash ko'nikmasini shakllantirishga erishishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. O'RQ-637-son. "Ta'lil to'g'risida" gi qonun, 23.09.2020 y.

2. Семина Е.А. (2010). Компетентностная модель выпускника педагогического вуза - будущего учителя математики. Альманах современной науки и образования. - № 5 (36). - С. 133-135.
3. 3.Ахметов Л.Г. Интегрированная информационная среда профессиональной деятельности учителя технологии. Автореф. дисс. докт.пед.наук. -Казань.2009. - С.48.
4. 4.Башина Т.Ф., Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Питер, 2009. – с.
5. 5.Hayitov Anvar Isomiddin o'g'li, Jo'rayev Umidjon Luqmon o'g'li "Modern scientific research: Topical issues, achievements and innovations" "Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining refleksiv kompetentligini rivojlantirish mazmuni"
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.
7. Erkabayeva Manzuraxon Sanjarbek qizi, Muydinova Madina Alisherovna, " Pedagogik va psixologik tadqiqotlar", "Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi", <https://doi.org/10.5281/zenodo.7944208>, 5-son,2023y, 51-55b
8. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari asosida O'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish: ped.f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. -T.: 2017, 39 b.
9. Yusufaliyeva G. A. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o'qituvchining roli", ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723.
10. M.M.Murodova, "Экономика и социум" №12(103) 2022 , "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integrativ yondashuv asosida darslarni tashkil etishning ahvoli"
11. M.Pardayeva "Talim oluvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning produktiv yechimlari", "Xalq ta'limi" jurnali 6-son, 2023-y.
12. 12.Camarda, Anaëlle, Lison Bouhours, Anaïs Osmont, Pascal Le Masson, Benoît Weil, Grégoire Borst, and Mathieu Cassotti. 2021. Opposite Effect of Social Evaluation on Creative Idea Generation in Early and Middle Adolescents. Creativity Research Journal 33: 399–410. [CrossRef]
13. 13.Rahmatova, F. A., & Akramova, Z. B. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. fan, ta'lim va amaliyotning integrasiyasi, 3(4), 133-137.
14. Hayitov, A., & Mansurova, S. (2022). Integrativ yondashuv asosida boshlang'ich sinif o'quvchilarida ekologik kompitensiyalarni shakillantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Science and innovation, 1(B7), 1009-1015.
15. R.Mavlonova, N.Vohidova va b. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O'quv qo'llanma. -T.: "Fan va texnologiyalar", 2013 y.
16. Murodova M. M. Bo'lajak boshlang'ish sinf o'qituvchilari faoliyatida pedagogik deontalogiya va kompetentlik //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 1. – 90-97b.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº S/2 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масьулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).